

NORMATIV HUQUQIY HUJJATLAR HISOBLANGAN QONUN, FARMON, FARMYOYISH, QAROR, BUYRUQNING BIR-BIRIDAN FARQI NIMADA?

Sadullayeva Farida Farxod qizi

Termiz Davlat Universiteti Yuridik

fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola normativ-huquqiy hujjat tushunchasi, turlari, uni qabul qilishga vakolatli bo'lgan shaxslar doirasi, qonun, qaror, farmon va farmoyish, qonunning bir-biridan farqi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Kalit so'zlar: Normativ-huquqiy hujjat, qonun, farmon, farmoyish, qaror, buyruq.

WHAT IS THE DIFFERENCE BETWEEN THE LAW, DECREE, ORDER, DECISION, ORDER, WHICH ARE CONSIDERED NORMATIVE LEGAL ACTS?

Annotation: This article contained information about the concept of a normative legal act, types, the circle of persons authorized to adopt it, about the difference between law, decision, decree and order, law.

Keywords: Regulatory legal Act, law, decree, order, decision, order.

В ЧЕМ ОТЛИЧИЕ ЗАКОНА, УКАЗА, ПРИКАЗА, ПОСТАНОВЛЕНИЯ, ПРИКАЗА ОТ ДРУГИХ, КОТОРЫЕ СЧИТАЮТСЯ НОРМАТИВНЫМИ ПРАВОВЫМИ АКТАМИ?

Аннотация: Данная статья содержит информацию о понятии нормативного правового акта, видах лиц, уполномоченных его принимать, объеме, различии между законом, постановлением, указом и приказом, законодательным актом.

Ключевые слова: Нормативный правовой акт, закон, указ, приказ, постановление, приказ.

Normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.¹

20.04.2021 yilda qabul qilingan, 60 ta moddadan iborat bo‘lgan “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasini, turlarini, ushbu hujjatlarning o‘zaro yuridik kuchi va nisbatini belgilashdan, shuningdek ularni rejalashtirish, tashabbus qilish, tayyorlash, ekspertizadan o‘tkazish, kelishish, qabul qilish, e‘lon qilish, ularning ijrosini tashkil etishni ta‘minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan organlar yoki mansabdor shaxslardir.

Fuqarolar O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining referendumini to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan tartibda o‘tkaziladigan referendum yo‘li bilan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari quyidagilardan iborat:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
2. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari;
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
6. Vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;

¹ “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasi.

7. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.²

Normativ-huquqiy hujjatlar qonunchilik hujjatlari bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonun hujjatlaridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlaridir.

Xo‘sh qonun, qaror, farmon va farmoyish, qonunning bir-biridan farqi nimada?

Qonun — inson, jamiyat va davlat manfaatlarini nuqtai nazaridan eng muhim hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasi. Qonun davlat oliy vakillik organlarining eng yuqori kuchga ega bo‘lgan hujjatidir. Qonun davlat huquq tizimining asosini tashkil qiladi, davlatning boshqa hamma organlarining normativ aktlariga nisbatan eng katta yuridik kuchga ega bo‘ladi.

Qaror — davlat organi yoki mansabdor shaxsning o‘z vakolati doirasida muayyan maqsadga erishish yo‘lida qabul qiladigan va biror oqibat keltirib chiqaradigan hujjati. Qaror, odatda, ijro etuvchi hokimiyat organi tomonidan qabul qilinib, u ana shu organning o‘z vazifalarini amalga oshirish vositalari va yo‘llarini nazarda tutgan boshqaruv vaziyatini tahlil etish hamda baholashga oid erki ifodasi hisoblanadi.

Farmon — muayyan mamlakatlarda davlat boshligi (Prezident) chiqaradigan muhim huquqiy hujjat. Farmon bilan, odatda, shaxslar yuksak lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi, favqulodda yoki harbiy holat tartibi joriy

² “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasi.

etiladi, orden va medallar bilan mukofotlash amalga oshiriladi, oliy harbiy va faxriy unvonlar beriladi, umumnormativ xususiyatga ega bo‘lgan qarorlar rasmiylashtiriladi. Umumiy qoidaga ko‘ra, Farmon mazkur davlat konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo‘lmasligi kerak.

Farmoyish — boshqaruvga doir huquqiy hujjat. Konstitutsiyaviy huquqda davlat boshlig‘i va ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan vakolatlari doirasida chiqariladi. Ijro etuvchi hokimiyat organining tez hal qilinishi kerak bo‘lgan va boshqa joriy masalalariga oid qarori farmoyish shaklida chiqariladi.

Buyruq - yakka hokimlikka asoslangan huquqiy hujjat. Muayyan muassasa yoki boshqa tur tashkilot oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo‘llanadi. Qurolli Kuchlarda boshliqning o‘z qo‘l ostidagilarga yozma yoki og‘zaki ravishda bergan farmoyishi bo‘lib, bu farmoyish bo‘ysunuvchilar uchun qonun hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, qonun - eng yuqori kuchga ega hujjat. Qaror - rasmiy organ yoki mansabdor shaxsning biror masala bo'yicha to'xtamini ifodalovchi hujjat. Farmon - eng yuqori organ yoki davlat boshlig'ining buyrug'i. Farmoyish esa tez hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar haqidagi farmon yoki qarordir. Buyruqqa keladigan bo'lsak, biror tashkilot oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida chiqariladigan hujjat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.
2. “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasi.
3. “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasi.

Foydalanilgan internet saytlari:

1. <https://lex.uz/>

2. <https://yoshlarovozi.uz/>